



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

MUHAMMAD YUSUF – VATANIFTIHORI

Ergasheva Mumina Erkin qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-kurs talabasi

INFO:

Qabul qilindi: 26.02.2022
Ko'rib chiqildi: 27.02.2022
Chop etildi: 27.02.2022

Kalit so'zlar: Muhammad Yusuf, shoir, ijod, adabiyot, asar, Vatan, san'at, so'z, she'r, xalq, adib, samimiyat, umr, she'riyat, nazm, uyg'unlik, ijodiyot, uyg'unlik, ma'no, ohang, rang, joziba, yurt, olam, qadriyat

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Mustaqilligimizni baland pardalarda kuylagan, betakror ijodkor, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodiga haqida fikrlar yuritilgan. Muhammad Yusuf ko'nglidan el qalbiga yo'l olgan so'z karvonining har bir satrida ona Vatan - O'zbekistonga beqiyos mehr-muhabbat, el xizmatiga kamarbastalik, zahmatkash va ulug' o'zbek xalqiga chin farzandlik ehtiromi, samimiyat va jo'shqin ehtiros bilan uyg'unlashgan ma'no, ohang, rang va joziba mujassam.

Copyright © 2021, [Creative Commons Attribution 4.0 International License](#)
tomonidan himoyalangan

Аннотация: В этой статье говорится, о том, как высоко прославлял нашу Независимость неустанный творец, народный поэт Узбекистана Мухаммад Юсуф. Он нашел путь со своей души к душе народа. Мухаммад Юсуф в каждой строке показал любовь к своей Родине – Узбекистану. Как истинный сын своей страны он всегда выражал своё глубокое уважение и почитание своей Родине и узбекскому народу.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, поэт, творчество, произведение, Родина, искусство, слово,

стихотворение, народ, писатель, душевность, жизнь, поэзия, соответствие, смысл, мелодия, цвет, прелести, страна, вселенная, ценности.

Abstract: This article reflects on the work of Muhammad Yusuf, a unique artist, People's Poet of Uzbekistan, who sang our Independence on the stage. In each line of the words in karvan that Muhammad Yusuf traveled from the heart to the soul of the people, there is a meaning, tone, color and charm combined with incomparable love for the motherland - Uzbekistan, dedication to the service of the people, sincere childish respect for the hardworking and great Uzbek people.

Key words: Muhammad Yusuf, poet, creation, literature, work, Homeland, art, word, poem, nationality, writer, sincerity, life, poetry, verse, harmony, meaning, tone, color, charm, country, universe, value, country.

So‘zni qadrlagan, o‘z ona diyorini sevib, xalqiga sadoqat bilan xizmat qilgan, Vatanini sidqidildan tarannum etgan shoirini xalqi ham, Vatani ham qadrlab, e’zozlaydi.

Hazrat Alisher Navoiy bobomiz «Mahbub ul-qulub» asarining «Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari» faslida sohibkamol shoirlarga baho berarkan: «... olamda zavqu hol axli bular latoyifi bila masrurdurlar va bular maorifi bila huzur qilurlar» deya e’tirof etadilar.

Ulug‘ bobomizning bu ta’riflariga «zavqu hol axli» qalbidan allaqachon joy olgan bulbulzabon shoirimiz Muhammad Yusufning ijodi ham bevosita taalluqlidir deb o‘ylaymiz. Elu yurtning qaddu bastini yuksak, munosib so‘z bilan ko‘rsata bilmoq hamma shoirlarga ham nasib qilavermaydi. Taqdirning beshafqat hukmini qarangkim, Andijonda tug‘ilib o‘sgan yana bir shoiriga Zahiriddin Muhammad Bobur umrini ravo ko‘rmish.

Taqdir - hakdir. Muhammad Yusuf ozod, dilbar Vatanini bir farzand yanglig‘ sidqidildan, ko‘nglini osmonlarday keng ochib kuylab o‘tdi.

Muhammad Yusuf istiqlol davri adabiyotining zabardast vakillaridan biri, she’riyatga yangicha ruh va yangicha ohanglar olib kirgan novator shoirdir. Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari zabardast shoirlar madh etgan ona Vatan - O‘zbekistonni yangi pardalarda, go‘zal tashbexdar vositasida kuylay olgan vatanparvar shoirdir. Xalqning dilidagi gaplarni, uning injá tuyg‘ularini qog‘ozga tushirgan chinakam xalq shoridir. Shu jihatlari bilan u millionlab she’riyat muxlislari qalbida o‘chmas iz qoldirdi, hurmat va e’zozga sazovor bo‘ldi.

«Osmonga bo‘y cho‘zgan oqterak o‘lkam!» yoki «O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga, Rimni alishmasman bedapoyangga» degan satrlarida o‘ziga xoslik bor-ki bu satrlar hech bir shoirning yozganlariga o‘xshamaydi. Vatanning o‘zi misol tushunarli, halol va hokisor eli yanglig‘ soddagina qilib kuylaydi shoir.

Xudo bergen bu iste’dod «Shuvoqlari ko‘chgan eski uylar», ajin bosgan aziz va qadrdon yuzlarni eslatuvchi nim nuragan paxsa devorlaru tuproq ko‘chalarining tungi sukutlaridan, onayizorlarning mehru sog‘inchlari, otalarning umriy zahmatlari isi kelguvchi yaktak-choponlari, suluv qizlarning kulgulariyu - qoshu kipriklari aro o‘sma maysasidek ko‘karib, barg yozib kamol topdi. Bu she’riyat mehru sog‘inch, dardu hijron, tiriklik va o‘lim, diydor va ayriliq tarbiyasini olgan, shuning uchun unda mehr ham, sog‘inch ham bisyor.

Beixtiyor bahor gul-chechaklarini sochayotgan jozib oqshom aro uning o‘ychan qiyofasi gavdalanadi, diydalari ostida bir juft bezovta qush in qurgan, yaxshilab tikilsangiz - ko‘klam yomg‘irlarida ivigan oq ko‘ylagi ostidan ozg‘in jussasi ichra yuragi ko‘rinib turganday...

Shoirni el rag‘batiga sazovor etgan - she’rlari, dehqon qo‘lidagi nonday jaydari va soddavash she’riyati.

She’rlar - ko‘ngil bog‘ining shavq shamollarida shovullab to‘kilgan yaproqlaridir. «Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?» deyilgan, bir bog‘ning rahmu shafqati berkinib yotgan satrda jayron ko‘zlarini dalalarning g‘ubori chulg‘agan oysingillar uchun bir dunyo mehr bordir.

Haqiqiy she’riyat hamisha fidoyilikni talab qiladi, shoirdan beayov qurbanlikni, o‘zini o‘zi shafqatsizlarcha So‘zga baxshida etmoqni so‘raydi. Muhammad Yusuf chin shoir edi, shundayligicha qoldi. U ilk she’ri chiqqanidan buyon bir odam zotiga berilgan nimaiki quvonchu iztirob, mehnatu zahmat, baxtu farog‘at bo‘lsa - hamma-hammasini she’rlariga bahishladi.

Shuning uchun «Nima qilsam she’r ishqida qildim men» degan satri ham endi butun hayotiyu ijodiga xulosaday jaranglaydi. Va «Yurtim, seni iddaolar qilmay sevaman» deb aytganida ham nechog‘lik haq edi.

Istiqlol davrida yurtda qanchalar yo‘lu ko‘priklar solingani yanglig‘, necha azizu avliyolarning muqaddas makonlari obod etilib, yana ne-ne muhtasham, muazzam binolar tiklangani misol adabiyotimiz, she’riyatimizda ham bu yillarda nurlig‘izlar qoldirdi.

Ustozlar izidan, safdoshlari bilan yonma-yon Muhammad Yusuf ham, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘z she’rlari bilan nurli ko‘priklar solib, yangi yorug‘ yo‘llar ochishga muvaffaq bo‘ldi. Uning nazmiy yo‘l-ko‘priklari ko‘ngillarni ko‘ngillarga uladi, dillarni dillarga yaqinlashtirdi.

Eli, Vatani haqida she’r yozmagan shoir, asar bitmagan adib, olim, san’atkor yo‘q. Vatan haqida eng ko‘p va eng xo‘p yozganlardan biri Muhammad Yusufdir. Buni oddiy sanoqdan ham, she’rlarining mavzu, mohiyatidan ham, kitoblaridan biri «Ulug‘imsan, Vatanim» deb atalishidan ham anglashiladi.

Shoir balandparvoz so‘zlarni, yasama iboralarni xush ko‘rmas, yurakka jiz etib tegadigan, cho‘g‘li, ta’sirli misralar, hayotiy misol, timsol, qiyoslar bilan yurtining betakror go‘zalligi, ulug‘vorligini tarannum etardi.

Muhammad Yusuf uchun she’r doimiy hamdam, bir malham, shirin g‘am, goh qo‘l yetmas hilol, goh bag‘ritosh sanam edi. U qishlokda tug‘ilgan, tabiat qo‘ynida ulg‘aygan yigit edi, tabiat farzandi, uning oshig‘i, shaydosi edi, beg‘ubor shoir ona tabiatni sof, toza, but holda ko‘rgisi kelar, shuni tilar edi. Daryoga, bulbulga, yalpizga, lolaqizg‘aldoqqa, kapalakka, bug‘doypoyaga, otga, kiyikka, baliqlarga atab she’r bitgan. «Mening og‘am - oqterak, Mening onam - majnuntol» - deydi bir she’rida. «Kel, tug‘ishgan og‘ang bo‘lay man, Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh» - deb yozadi.

«O‘rtoq qumursqalar, menga ishoning» - deya murojaat etadi jajji, zahmatkash hasharotlarga. Mustabid zamonda xalqning katta dardini, ijtimoiy dard-armonini kuyunib kuylagan shoirning Istiqlolni qanchalik tashnalik bilan, shod-xurram kutib olgani, g‘ururlanib naqshga, qo‘shiqqa solgani, to‘lib-toshib tarannum etganini tasavvur etsa bo‘ladi.

«Fidoyilar», «Tilak», «Inshooloh», «Dunyolarni quchdi o‘zbek degan nom», «O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim», «Yoshlar madhiyasi», «Muhammadqodir» va shu kabi she’rlar, dostonlar birin-ketin paydo bo‘ldi.

Muhammad Yusuf ijodiga xos yana bir xususiyat ayrim she’r va dostonlarining, maqola va suhbatlarining nozik, tagdor humor, goh nordon, goh achchiq kulgi bilan yo‘g‘rilganidir. Saksoninchchi yillarda oxirlari va undan keyin yozilgan «To‘n haqida she’r», «Do‘ppi», «O‘zbekfilm», «Ot haqida ballada», «Turkman qizga uylanaman» kabi tizmalari shoirning sinchkovligi, kuzatuvchanligi, kichik voqeasi, detaldan katta ma’no chiqara olishi, tagi zil gapni hazil libosiga o‘rab bera olish mahoratidan dalolatdir.

Toki hayot bor ekan, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, nur va zulmat o‘rtasidagi kurash

to‘xtamaydi. Bu yana shuni ham anglatadiki, tarixiy mavzudagi asar o‘ta zamonaviy ruh kasb etishi, va yo aksincha, zamonaviy ruhdagi asar tarixiy kadr-qimmatga ega bo‘lishi mumkin.

Oddiy qilib aytganda, har bir davr adabiyotga yangicha ruh va mazmun bag‘ishlaydi, o‘z zamonining adabiy qahramonlarini maydonga olib chiqadi.

Muhammad Yusuf ko‘nglidan el qalbiga yo‘l olgan so‘z karvonining har bir satrida ona Vatan - O‘zbekistonga beqiyos mehr-muhabbat, el xizmatiga kamarbastalik, zahmatkash va ulug‘ o‘zbek xalqiga chin farzandlik ehtiromi, samimiyat va jo‘shqin ehtiros bilan uyg‘unlashgan ma’no, ohang, rang va joziba mujassam.

Yuksakka ko‘tarilganda kishi yanada yuksakroq manzillarni ko‘rishi mumkin. Hech shubha yo‘qki, Muhammad Yusuf she’riyati milliy o‘zlikni anglash, ozod va obod Vatanni tarannum etish, oq sut berib ulg‘aytirgan ona xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish borasida yosh avlod uchun o‘ziga xos ijod maktabi vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida / Muharrir U. Qo‘chqorov. — Toshkent, «Adib» nashriyoti, 2014.
2. Muxammad Yusuf “Quyoshga qarab oqqan suv”, 2019. “Nurafshon biznes” nashriyoti.
3. O‘zbek tili ensiklopediyasi. Toshkent, 2001-2005.
4. Internet resurslar.